

20-Fevral, 2025-yil

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF
O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI RIVOJLANTIRISH
SHART-SHAROITLARI**

Abdusamiyev Dilmurod Abdug'ani o'g'li

Turan International University dotsenti,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0009-0000-0934-5783>

email: abdusamiyev1993@bk.ru

Tel: +(94) 152 58 68

Annotatsiya: Ushbu maqola akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlanirish shart-sharoitlarini o'rghanishga qaratilgan. Tadqiqotda kasbiy identifikatsiyaning nazariy asoslari, psixologik-pedagogik jarayonlar va shaxsiy xususiyatlar tahlil qilinadi. Maqolada, o'qituvchilarning kasbiy o'sishini qo'llab-quvvatlaydigan ichki motivatsiya, professional iqlim va innovatsion ta'lif metodlari hamda ularni shakllantirish mexanizmlari bayon etiladi. Natijalarga asoslanib, maqola kasbiy rivojlanish jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlab, ilg'or tajriba va tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: akmeologik yondashuv, kasbiy identifikatsiya, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, pedagogik rivojlanish, ichki motivatsiya, ta'lif metodlari.

Bugungi kunda pedagogika fanida o'qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini shakllantirish va rivojlanirish masalalari dolzarb mavzu sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kasbiy identifikatsiyaning shakllanishi nafaqat ularning professional o'sishi, balki ta'lif jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ta'lif sifatining oshishi bevosita o'qituvchi sifati bilan bog'liq ekanligi hech birimiz uchun sir emas.

L.S.Vigotskiy shaxsni insoniyat madaniyatiga olib kirish kabi muhim vazifani qo'ydi, biroq, uni o'rgatish, ta'lif berish vazifasiga bog'ladi. Aslida, shaxsni takomillashtirish bu nafaqat shaxs tomonidan insoniyat madaniyatini egallash, balki shaxs tomonidan "madaniy darajaga" erishish, shaxs tomonidan madaniyatni ishlab chiqish deb aytish mumkin. Ushbu vazifa faqatgina sub'ektning o'zi tomonidangina hal etilishi mumkin, - deb asoslaydi.

Akmeologik yondashuv – bu o'qituvchining shaxsiy, professional va ijtimoiy resurslarini integratsiyalash orqali uning ichki motivatsiyasi, shaxsiy xususiyatlari va pedagogik uslubini rivojlanirishga qaratilgan nazariy va amaliy konsepsiya hisoblanadi. Mazkur bo'limda biz ushbu yondashuv asosida o'qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini rivojlanirish shart-sharoitlarini ilmiy nuqtai nazardan ko'rib chiqamiz.

Ilmiy adabiyotlarda kasbiy identifikatsiya atamasi o'qituvchining o'z kasbiga, kasbiy faoliyatiga va professional hamjamiyatga bo'lgan hissiy-psixologik munosabatlarini ifodalash uchun ishlataladi. Ushbu tushuncha shaxsiy o'zlik, ijtimoiy rol va professional tajriba o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Tadqiqotchilar fikricha, o'qituvchilarning kasbiy

20-Fevral, 2025-yil

identifikatsiyasi ularning professional faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishi, innovatsion usullarni qo'llashi va o'quv jarayoniga faollik bilan yondashishida muhim omil hisoblanadi.


Akmeologik yondashuv o'zining nazariy asoslarini shaxs psixologiyasi, o'zlikni anglash va professional ijtimoiylashtirish jarayonlaridan oladi. Ushbu konsepsiya asosida shaxsning rivojlanishi quyidagi jihatlar orqali tahlil qilinadi:

1. Ichki motivatsiya va shaxsiy resurslar – o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan ishtiyoqi va shaxsiy salohiyati.

2. Professional o'sish va innovatsion ta'lif metodlari – zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodologiyalarni o'zlashtirish orqali o'qituvchining kasbiy darajasini oshirish.

3. Ijtimoiy va madaniy omillar – jamiyatning ta'lif tizimiga bo'lgan talab va qadriyatlar, hamda o'qituvchining ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri.

O'qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishda ularning ishlash muhiti va ta'lif tizimining zamonaviyligi katta ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar quyidagi omillar orqali kasbiy o'sishni ta'minlaydi (1-rasm):



1-rasm. Zamonaviy ta'lif sharoitida kasbiy o'sish omillari³²

a) Innovatsion ta'lif metodlari – o'qituvchilarga yangi usullarni o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini beruvchi treninglar va seminarlar.

b) Digital texnologiyalar – interaktiv darsliklar, onlayn kurslar va virtual sinflar orqali zamonaviy o'qituvchilik tajribasini boyitish.

c) Tajriba almashish va hamkorlik – pedagogik konferensiyalar, seminarlar va ilmiy uchrashuvlar orqali o'qituvchilar o'rtaida bilim almashish jarayonini kuchaytirish.

Bu omillar orqali o'qituvchilarining o'zaro fikr almashuvi, tajriba boyligi va zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan unumli foydalanishi kafolatlanadi.

So'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik jarayonlarni individualizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini sezilarli darajada mustahkamlaydi. Bir qator ilmiy ishlar quyidagi asosiy xulosalarga erishgan:

– o'qituvchilarining o'zlikni anglash va o'zgaruvchan pedagogik sharoitlarga moslashish qobiliyati ularning samaradorligini oshiradi;

³² Muallif tomonidan tizimlashtirilgan

20-Fevral, 2025-yil

- ichki motivatsiyaning yuqori darajasi o’qituvchilarining o’z-o’zini rivojlantirishga bo’lgan intilishini kuchaytiradi;
- innovatsion treninglar va malaka oshirish dasturlari o’qituvchilarining nazariy bilimlari va amaliy ko’nikmalarini uyg’unlashtirishga xizmat qiladi.

Ilmiy qarashlar asosida olib borilgan tahlil shuni ko’rsatadiki, akmeologik yondashuv asosida boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish uchun keng qamrovli metodologik va amaliy chora-tadbirlarni joriy etish zarur. Tadqiqotlar va amaliy tajribalar asosida quyidagi asosiy fikrlarni ta’kidlash mumkin:

1. Shaxsiy va professional rivojlanish. O’qituvchilarining o’zlikni anglash jarayonini chuqurlashtirish va ichki motivatsiyani mustahkamlash ularning kasbiy o’sishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.
2. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Zamonaviy raqamli texnologiyalar va interaktiv treninglar o’qituvchilarining malakasini oshirishga, ularning nazariy va amaliy ko’nikmalarini uyg’unlashtirishga xizmat qiladi.
3. Mentoring va tajriba almashish. O’qituvchilar o’rtasida doimiy tajriba almashish va professional hamkorlik tizimlarini yo’lga qo’yish, ularning kasbiy identifikatsiyasini yanada mustahkamlaydi.
4. Ijtimoiy-madaniy omillar. Ta’lim tizimidagi umumiyl madaniyat va ijtimoiy qadriyatlar ham o’qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi.

Ushbu ilmiy qarashlar va amaliy tavsiyalar asosida, kelgusida boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini yanada rivojlantirishga qaratilgan tizimli va integratsiyalashgan yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin. Natijada, o’qituvchilarining shaxsiy salohiyati va professional o’sishi ta’lim jarayonining sifatini oshirishga, o’quvchilarining bilim va ko’nikmalarini samarali shakllantirishga shar-sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Абдулханова И.А., Анисимов О.С., Деркач А.А. ва бошқалар. Акмеология. Дарслик (электрон). – М.: РАГС, 2004.
2. Кузмина Н.В. Основы акмеологии. – М., 2007.
3. Yo‘ldoshev J., Usmanov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Т.: O’qituvchi, 2004.
4. Tillaeva S.N. Akmeologiya asoslari. –Т.: Tafakkur bo‘stoni, 2014.